

V-SHOBА: RAQAMLI IQTISODIYOT DAVRIDA KORXONALAR FAOLIYATINI DIVERSIFIKATSIYALASHNING MUHIMLIGI

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA KORXONANING IQTISODIY VA AXBOROT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH

Umarov Saidvali Saidaxmedovich
Alfraganus university dotsenti, i.f.n.,
dotsent

Annotatsiya. Ushbu tezisdа raqamli iqtisodiyot sharoitida korxonalarning iqtisodiy va axborot xavfsizligini ta'minlash masalalari yoritilgan. Raqamli texnologiyalar jadal rivojlanib borayotgan davrda iqtisodiy jarayonlarning raqamlashtirilishi yangi imkoniyatlar bilan bir qatorda turli xavf va tahdidlarni ham yuzaga keltirmoqda. Tadqiqotda korxona faoliyatida axborot tizimlarining ishonchliligi, ma'lumotlarni himoya qilish usullari, raqamli xavfsizlik siyosatini shakllantirish hamda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash mexanizmlari tahlil qilinadi. Shuningdek, O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi bilan bog'liq xavfsizlik yondashuvlari bo'yicha takliflar ishlab chiqiladi.

Kalit so'zlar: raqamli iqtisodiyot, iqtisodiy xavfsizlik, axborot xavfsizligi, raqamlashtirish, kiberxavfsizlik, korxona barqarorligi, ma'lumotlarni himoya qilish.

Аннотация. В данной работе рассматриваются вопросы обеспечения экономической и информационной безопасности предприятий в условиях цифровой экономики. В эпоху стремительного развития цифровых технологий цифровизация экономических процессов создает как новые возможности, так и потенциальные угрозы. В исследовании анализируются надежность информационных систем предприятия, методы защиты данных, формирование политики цифровой безопасности и механизмы обеспечения экономической устойчивости. Также выдвигаются предложения по совершенствованию подходов к безопасности в условиях развития цифровой экономики в Узбекистане.

Ключевые слова: цифровая экономика, экономическая безопасность, информационная безопасность, цифровизация, кибербезопасность, устойчивость предприятия, защита данных.

Abstract. This thesis explores the issues of ensuring economic and information security of enterprises in the context of the digital economy. In an era of rapidly developing digital technologies, the digitalization of economic processes creates both new opportunities and emerging threats. The research analyzes the reliability of enterprise information systems, methods of data protection, the formation of digital security policies, and mechanisms to ensure economic stability. Furthermore, the paper provides recommendations for improving security approaches in the process of digital economy development in Uzbekistan.

Keywords: digital economy, economic security, information security, digitalization, cybersecurity, enterprise stability, data protection.

Kirish. Jahonning yetakchi rivojlangan mamlakatlari iqtisodiyotining eng muhim sektorlaridan biri sanoat bo‘lib xisoblandi. Bugun jahondagi rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, mamlakatlarning iqtisodiy o‘rinishining manbai sifatida intellektual texnologiyalar, innovatsion mahsulotlar, intellektual platforma texnologiyalar yaratish, ishlab chiqarish hamda milliy iqtisodiyotning sanoat tarmoq tuzilmalarini ular asosida samarali rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish zarurligini belgilab beradi.

Raqamli iqtisodiyot sharoiti - bu elektron iqtisodiyotning asosiy qismi, bu sharoitda muayyan iqtisodiy olaylar uchun elektronlashtirilgan va tahlil qilingan ma‘lumotlar omborini birlashtiradi. Raqamli iqtisodiyot sharoiti orqali, iqtisodiyotning turli sohasidagi ishlab chiqarish, tijorat, moliya, transport, taminot, kompyuterlar va kommunikatsiyalar sohalarida muammolar hal qilinadi. Raqamli iqtisodiyot sharoiti yordamida iqtisodiyot islohotlarining kengligi va tezligi oshiriladi, qo‘shimcha hisobotlar va analitik ma‘lumotlarni yaratish, tahlil va taxmin qilish imkoniyatlari yaratiladi.

O‘zbekiston Respublikasida aholi soni o‘tib bormoqda, bu esa o‘z navbatida aholi iqtisodiy faoliyatiga hamda sanoat korxonalari faoliyatining kuchaytirish tadbirlariga olib kelmoqda, va nafaqat sanoatni balki respublikaning jamiki iqtisodiy faoliyatini rivojlantirishga olib keladi. Iqtisodiy va texnologik taraqqiyotning yangi bosqichi sifatida namoyon bo‘layotgan raqamli inqilob insoniyat hayotini shiddat bilan o‘zgartirib, keng imkoniyatlar yaratish bilan birga, xalqaro raqobat maydonining yanada keskinlashuv davrini boshlab berdi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. Ushbu tadqiqotda raqamli iqtisodiyotning rivojlanishini baholash uchun qo‘llanilgan asosiy ilmiy-uslubiy yondashuvlar quyidagilardan iborat. Mamlakatimiz yangi iqtisodiy bosqichga ko‘tarilishi oqibatida barcha sohalarida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi [1].

Tadqiqot metodologiyasi. Axborot texnologiyalarining rivojlanishi oqibatida elektron tijorat tizimi ham yangi bosqichga ko‘tarildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2020-yil 5-oktyabrdagi ““Raqamli O‘zbekiston - 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6079-son Farmonida [2]“Elektron tijorat va elektron to‘lovlar tizimini rivojlantirish maqsadida quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi: axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini, shu jumladan mijozlarni masofadan aniqlash tizimlarini joriy etish orqali masofaviy bank xizmatlarini rivojlantirish; xalqaro elektron tijorat standartlari va zamonaviy axborot xavfsizligi talablariga rioya qilish uchun elektron tijoratni rivojlantirishning huquqiy asoslarini, shuningdek, mavjud standartlar va elektron tijorat qoidalarini takomillashtirish va yangilash; raqamli infratuzilmani rivojlantirish, mobil va simli Internet jahon axborot tarmog‘i qamrovi va tezligini yanada oshirish orqali elektron tijorat platformalariga shaxsiy raqamli uskunalardan ulanish imkoniyatlari va ko‘lamlarini oshirish va hokazolar” amalga

o'shish belgilab berilgan.

Tahlil va natijalar. Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, o'tkazilgan tahlillar asosida quyidagi asosiy natijalarga erishildi. Axborot texnologiyalarining tezlik bilan rivojlanishi iqtisodiyotda ham o'z aksini topmasdan qolmaydi [3]. Hozirgi kunda iqtisodiyotda, ayniqsa zamonaviy marketing sohasida erishilayotgan yutuqlar negizida aynan axborot texnologiyalari turli segmentlarining yuqori darajada rivojlanganligi va samarali qo'llanishi yotadi. O'zbekiston iqtisodiyoti ham bundan mustasno emas albatta. Yaqqol misol sifatida axborot texnologiyalarining bir qator segmentlari masalan, ma'lumotlar yetkazish tarmoqlari, axborot internet-resurslari va ular orasidagi elektron hujjat almashuv, internet marketing tizimlari, biznes va tijoratning barqaror rivojlanayotganini keltirish mumkin. O'zbekiston uchun axborot texnologiyalarini rivojlantirish yangi iqtisodiy aloqalarni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Lekin bu jarayon, axborot texnologiyalari sohasida ta'lim standartlarining oshishi, milliy telekommunikatsiya tarmoqlarining modernizatsiyalashuvi, huquqiy bazaning shakllanishi oqibatida vujudga keladigan jamiyatning ma'lum darajadagi informatsion tayyorligi mavjud bo'lgan holatdagina sodir bo'ladi.

Axborot asri deya e'tirof etilayotgan bugungi kunimizda axborot kommunikatsiya tizimi izchil rivojlanishda davom etmoqda. Bugun zamonaviy axborot texnologiyalarisiz hayotimizni tasavvur etib bo'lmaydi [4]. Mamlakat darajasida ushbu soha rivoji muhim omillardan biriga aylangan. Shu bois ham mamlakatimizda telekommunikatsiya tarmoqlarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda. Ayniqsa sohani xalqaro andozalarda mexanizatsiyalashtirish va rivojlantirish ustuvor yo'nalishlar sifatida belgilab olingan. Amaliy harakatlar natijasida yurtimizning olis mintaqalarida axborot resurslarini yaratish va undan foydalanish samaradorligi oshirilmogda.

Ro'y berayotgan o'zgarishlarni hisobga olgan holda raqamli iqtisodiyot deganda shuningdek, iste'mol qimmatini oshirish hamda asosiy natijalarga yerishish -xarajatlarni qisqartirish va mehnat unumdorligini oshirish hisobiga biznes raqobatbardoshligini oshirish maqsadida katta ma'lumotlar bilan almashinish va raqamli texnologiyalar imkoniyatlari asosida biznes-jarayonlarni yo'lga qo'yish va biznes-modellar shakllantirishni ham tushunish lozim [5]. Ushbu holatda gap internet tarmogida biznes tashkil qilayotgan kompaniyalarga xos bo'lgan biznes-modellar haqida ham, tarixan iqtisodiyotning barcha sektorlarida offlayn xo'jalik faoliyatini amalga oshiradigan an'anaviy biznes (qazib olish sanoati, qishloq xo'jaligi, qayta ishlash sanoati, xizmatlar sohasi) haqida ham boradi [6].

Raqamli iqtisodiyot sharoiti tizimlari bir nechta muhim ma'lumotlarni o'z ichiga oladi, masalan, xaridorlar, xodimlar, tashkilotlar, mahsulotlar, savdolar, xarajatlar va boshqa ko'plab ma'lumotlar. Bunday ma'lumotlar kriptografik protokollar yordamida xavfsiz tarzda almashinuvchi kompyuterlar orqali almashinuvchi tashkilotlar o'rtasida almashinuv yoki moliya operatsiyalari yuritishga mo'ljallangan. Raqamli iqtisodiyot sharoiti tizimlari muhim axborotni o'z ichiga oladi va shunday qilib, ularga hech qanday xavfsizlik xavotiri tayin qilinishi

zarurdir. Axborot xavfsizligi, Raqamli iqtisodiyot sharoiti tizimlarida katta muammolar tug'diradi.

O'z o'rnida qayd etish lozimki, mamlakatimiz hayotida raqamli iqtisodiyotning ayrim elementlari allaqachon muvaffaqiyat bilan faoliyat ko'rsatmoqda. Jumladan, hujjatlar va kommunikatsiyalarning ommaviy ravishda raqamli vositalarga o'tkazilishini hisobga olib, elektron imzoga ruxsat berish, davlat bilan muloqot qilish ham elektron platformalarga o'tkazilmoqda. BMT Bosh kotibi Antoniu Guterrishning ta'biri bilan aytganda, "Raqamli iqtisodiyot yangi xavf-xatarlarni vujudga keltirishi mumkin, shu jumladan, kiberxavfsizlikka tahdidlar, noqonuniy iqtisodiy faoliyatning yengillashuvi, shaxsiy hayot daxlsizligini buzilishi bilan bog'liq sabablarni keltirish mumkin. Yangi qarorlar qabul qilish hukumatlar, fuqarolik jamiyati, akademik guruhlar, ilmiy hamjamiyat va texnologik sektorlarning hamkorlikdagi harakatini talab etadi" [7].

Insoniyat taraqqiyotining hozirgi davri va yaqin istiqbolida iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy soha va davlat boshqaruvi tizimining sifat jihatdan rivojlanishi raqamli texnologiyalarni keng joriy etish bilan bevosita bog'liq bo'lib bormoqda. Mamlakatimiz taraqqiyotining istiqboli ham raqamli iqtisodiyot rivojlanishi va raqamli texnologiyalarning qamrov darajasiga tayanadi [8]. Bunga erishish uchun raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishning quyidagi asosiy shartlari va ustuvor yo'nalishlarini sanab o'tish maqsadga muvofiq. Raqamli texnologiyalar barqaror faoliyat ko'rsatishi uchun institutsional muhit va raqamli infratuzilmani yaratish, davlat xizmatlarini ko'rsatish, iqtisodiyotning real sektori tarmoqlari, sog'liqni saqlash, davlat kadastri va boshqa sohalarida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi hududini rivojlangan mamlakatlar darajasida internet global tarmog'iga ulanish imkoniyatlari bilan imkon qadar to'liq qoplashni bosqichma-bosqich ta'minlash.

Kadrlar tayyorlash ko'lamini kengaytirish va bu yo'nalishlar bo'yicha chuqur bilimga ega malakali dasturchilar va injener-texnik xodimlarni yetishtirish, ta'lim tizimining barcha bosqichlarida xalqaro andozalarga to'liq javob beradigan zamonaviy axborot texnologiyalarini o'qitish, shu jumladan, xorijiy hamkorlarimiz bilan birgalikda natijasi yuqori bo'lgan loyihalarni sinovdan O'zbekiston hududida amalga oshirish orqali maqsadlarga erishish mumkin.

Xulosa. Tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalar chiqarildi. Raqamli iqtisodiyot sohasida ilmiy-nazariy bazani mustahkamlash va bu sohada "Raqamli ishonch" jamg'armasi mablag'laridan maqsadli foydalangan holda ilmiy faoliyatni qo'llab quvvatlash zarur. Aholining keng qatlamlari o'rtasida "raqamli savodxonlik"ni targ'ib qilish va kengaytirish, ularni axborot texnologiyalarini o'zlashtirishga jalb qilish maqsadida o'quv yurtlarida seminar, kurslar va boshqa tadbirlarni o'tkazish kerak.

Raqamli iqtisodiyot sohasida me'yoriy-huquqiy bazani mustahkamlash va qonunchilik hujjatlarini takomillashtirish, Raqamli iqtisodiyot talablariga javob beradigan mehnat bozorini tashkil etish va yangi texnologiyalarni tezkorlik bilan o'zlashtirish uchun mutaxassislar malakasini oshirib borish; Innovatsion

ishlanmalar bo'yicha zamonaviy ilmiy-ishlab chiqarish laboratoriyalarini tashkil etish. Xalqaro tajriba shundan dalolat bermoqdaki, bugungi kunda raqamli texnologiyalar asosan ilmiy hamjamiyat va xususiy sektorda jadal rivojlanmoqda. Shuning uchun davlat, aynan, ushbu sohalarda innovatsion loyihalar va IT kompaniyalarni qo'llab quvvatlagan holda qulay ekotizimni yaratishi lozim.

Foydalanilgan adaboyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-apreldagi "Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4699-son qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi "“Raqamli O'zbekiston - 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-6079-son farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 31-maydagi "O'zbekiston Respublikasining muhim axborot infratuzilmasi obyektlari kiberxavfsizligini ta'minlash tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-167-son qarori.
4. G'ulomov S.S. Iqtisodiy ta'limning o'qitish texnologiyalari. Akademik G'ulomov S.S. taxriri ostida mualliflar jamoasi. - T.: TGEU, 2005.
5. Sharifxodjayev U., Xakimov Z. Interaktiv va raqamli marketing. O'quv qo'llanma. – T.: Iqtisodiyot. 2019.-271 b.
6. Salimov B.T., Mustafakulov Sh.I. Mikroiqtisodiyot: masalalar, topshiriqlar, testlar. - T.: "Gi Print", 2010.-244 b.
7. Bahodirovich, R. A. (2022). Mintaqada sanoat tuzilmasi ma'lumotlar bazasini yaratishda axborot modeli ta'minoti tizimi. Berlin tadqiqotlari transmilliy fan va gumanitar jurnali, 2 (1.1 iqtisodiy fanlar).
8. Abulqosimov X.P. Davlatning iqtisodiy xavfsizligi. / O'quv qo'llanma. – T.: "Akademiya", 2012